

TARIX DARSLARINING TARBIYAVIY ASOSLARI

Qurbonova Iroda Mohirjanovna

*Toshkent Xalqaro Vestminster Universiteti
akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarix fanining insoniy fazilatlarni shakllantirishdagi o'rnini, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish, tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodlar muhokama qilinadi. Shuningdek, interaktiv dars usullari, rolli o'yinlar, bahs-munozaralar va tarixiy shaxslar obrazlarini yaratish orqali o'quvchilarga ta'sir qilish yo'llari ko'rib chiqiladi. O'qituvchining shaxsiyati va pedagogik yondashuvi tarix ta'limining samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Tarix ta'limi, tarbiyaviy maqsadlar, shaxsiy fazilatlarni, interaktiv metodlar, tanqidiy fikrlash, tarixiy shaxslar, rolli o'yinlar, o'qituvchi shaxsiyati, ma'naviy tarbiya.*

"Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir"

Abdulla Avloniy

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarib bormoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasining ahamiyati ortib bormoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori¹⁶³ ta'lim tizimi hodimlari, xususan, ustoz-murabbiylarning mas'uliyatini yanada oshirdi. Ushbu maqolada tarix darslarining tarbiyaviy asoslari haqida so'z yuritamiz.

Tarix darslarining tarbiyaviy maqsadlari

Tarix nafaqat o'tgan voqealarni yodda saqlash, balki o'quvchilarda insoniy fazilatlarni shakllantirish vositasidir. Tarbiyaviy maqsadlarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha yanada batafsil tushuntirish mumkin:

- *Shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish:* Tarix darslari o'quvchilarda halollik, mas'uliyat, jasorat, sabr-toqat, hamdardlik, mas'uliyat, vatanparvarlik, vafo va sadoqat kabi xislatlarni shakllantirishga yordam beradi.¹⁶⁴

- O'quvchilar tarixiy shaxslarning qiyinchiliklar qarshisidagi matonati va fidoyiligini o'rganish orqali ushbu fazilatlarni o'zida rivojlantiradi.

¹⁶³ Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida Prezident qarori
<https://lex.uz/docs/-5344692>

¹⁶⁴ Vygotsky, L. S. Mind in Society. Harvard University Press. 1978.

• *Ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish*: Tarix turli xalqlarning o'zaro munosabatlari, madaniy va diniy bag'rikenglik tajribalarini o'rganish imkoniyatini beradi. O'quvchilar turli tarixiy jarayonlarni o'rganish orqali muros, bag'rikenglik, hamkorlikka ochiqlik kabi fazilatlarni rivojlantirishi mumkin.¹⁶⁵ Masalan, Buyuk Ipak yo'li davrida shakllangan iqtisodiy va madaniy hamkorlik bugungi kun global munosabatlari uchun ibrat bo'lishi mumkin.

• *Tanqidiy va mantiqiy fikrlashni shakllantirish*: Tarix darslari o'quvchilarga tarixiy voqealarga mustaqil munosabat bildirish, xulosalar chiqarish va sabab-oqibat bog'liqliklarini tushunish imkonini beradi.¹⁶⁶ Masalan, inqiloblarning sabablari va natijalarini tahlil qilish o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi.

• *Axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish*: Tarixiy voqealar va shaxslarning qarorlarini tahlil qilish orqali o'quvchilar o'z hayotlarida murakkab axloqiy tanlovlarni qanday hal qilish mumkinligi haqida fikr yuritishadi. Masalan, Ikkinchi jahon urushi davridagi qahramonlik va xiyonat misollari orqali insoniylik, vatanparvarlik va axloqiy javobgarlik tushunchalari o'rganiladi.

Tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish usullari

Darsning samaradorligini oshirish uchun quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq:

Muammoli savollar berish: O'quvchilar oldiga tarixiy hodisalar bilan bog'liq muhim axloqiy savollar qo'yish muhim.¹⁶⁷

Masalan, "Jaloliddin Manguberdi o'z maqsadi yo'lida oilasini qurbon qilishga majbur bo'ldi. Uning boshqa yo'li bormidi?" kabi savol o'quvchilarga shaxsiy va ijtimoiy majburiyatlar o'rtasidagi tanlovni o'rganish, shaxsiylik va umumiy manfaatlar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tahlil qilish imkonini beradi. Tarix fani chuqurlashtirib o'tiladigan guruhlarda muammoli savolni amaliy topshiriqqa aylantirish imkoni ham bor. O'quvchilar ikki guruhga bo'linib, biri Jaloliddin Manguberding qarorini qo'llab-quvvatlasa, ikkinchi guruh alternativ yo'llarni izohlashi kerak. Darsning tarbiyaviy natijasi esa, qahramonning shaxsiy fidoiyligi, davlat manfaatlari va oilaviy mas'uliyat o'rtasidagi muvozanat haqidagi fikrlar tahlili bo'ladi.

Yoki "Chingizxon Buxoroni egallash yo'lida qipchoq beklarini o'z tomoniga og'dirishini xiyonat deb hisoblash mumkinmi?" singari savol o'quvchilarga xiyonat va siyosiy taktikalar o'rtasidagi farqni tushunishga yordam beradi va ularni tarixiy qarorlar tahliliga undaydi.

Tarixiy shaxslar obrazini yaratish: O'quvchilar tarixiy qahramonlarning hayot yo'llarini tahlil qilib, ularning qarorlarini anglashga harakat qilishadi.¹⁶⁸ Bu borada ham bir necha amaliy misollar keltirishimiz mumkin: "Tarixiy shaxs bilan intervyu" o'yini. O'quvchilardan biri tarixiy shaxs rolini o'ynaydi, boshqalar esa unga savollar beradilar. O'quvchilar tarixiy shaxslarning motivatsiyasi, qarorlarini tushunib, tarixiy voqealarni ichki nuqtai nazardan baholashadi. Shu bilan darsning tarbiyaviy maqsadlariga ham erishiladi.

¹⁶⁵ Dewey, J. Experience and Education. Macmillan. 1938.

¹⁶⁶ Bruner, J. S. Toward a Theory of Instruction. Harvard University Press. 1966.

¹⁶⁷ Piaget, J. The Psychology of Intelligence. Routledge. 1950.

¹⁶⁸ Erikson, E. H. Childhood and Society. Norton. 1963.

Rolli o'yinlar va bahs-munozaralar: O'quvchilarni tarixiy voqealar ishtirokchisi sifatida tasavvur qilishga undash orqali ularning hamdardlik va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish.¹⁶⁹ "Buyuk Ipak yo'li" mavzuidagi dars bo'yicha o'quvchilar turli tarixiy shaxslar (savdogarlar, davlat vakillari, sayyohlar) roliga harakat qiladi. Ular o'z manfaatlarini himoya qilish uchun muzokaralar olib borishadi. Tarbiyaviy natijada esa, savdo-sotiq madaniyati, madaniyatlararo muloqot va diplomatiya haqida tushunchalarga ega bo'ladilar.

Dars shakli va uslubi

Tarix - faqat urushlar va sanalardan iborat bo'lmay, balki inson tanlovi va uning oqibatlarini tushuntiruvchi fan hisoblanadi. O'tmishdagi voqealarni tahlil bilan o'rganish o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatib qolmasdan, o'quvchilarda ijobiy axloqiy qadriyatlar, mustaqil fikrlash, mas'uliyat va samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli dars shaklini to'g'ri tanlash muhim:

Guruh va juftlik ishlari: Tarixiy mavzular bo'yicha muhokamalar, seminarlar orqali o'quvchilarda jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirish.¹⁷⁰

Interaktiv darslar: Talabalarining tarixiy shaxslar qiyofasiga kirib, ularning fikrlash tarzini anglash imkoniyatini yaratish¹⁷¹

Axloqiy tanlov vaziyatlarini yaratish: Masalan, tarixiy hujjatlar asosida o'quvchilarga muayyan tarixiy shaxsning qarorlarini tahlil qildirish.¹⁷² Amaliyot uchun bir necha vaziyatlarni keltirib o'tamiz:

"Xorazmshohlar va Chingizxon munosabati". Xorazmshohning diplomatik qarorlarini tahlil qiling. Agar siz Muhammad Xorazmshoh bo'lsangiz, Chingizxon bilan diplomatik munosabatlarni qanday olib borar edingiz? Xalqingizni himoya qilishda qanday axloqiy masalalar bilan yuzlashgan bo'lardingiz?

"Sovet ittifoqi va Stalin rejimi". Industrialashtirish, kollektivlashtirish va "Madaniy inqilob" kabi siyosiy dasturlarni amalga oshirilishida insonlarning erki, tanlovi, huquqlarini himoya qilish mumkinmidi? "Stalin nomidan javob berishga harakat qiling, siz o'tkazgan kollektivlashtirish siyosati ijtimoiy adolat o'rnata oldimi? Quloqlashtirish orqali mavjud ijtimoiy masalalar yechildimi? Bu siyosat insonlar taqdirini izdan chiqarib yubordimi yoki aksincha, ularga yordam bedimi?"

Sovet davri va mustaqillikka intilish haqidagi mavzularda 1980-yillarda O'zbekistonda mustaqillikka bo'lgan intilish va sovet tizimiga qarshi harakatlarning faollashuvi, Farg'ona voqealariga oid vaziyatda Islom Karimov faoliyati. Agar siz Islom Karimov bo'lsangiz, Sovet tizimida qolish yoki mustaqillikka intilish o'rtasidagi axloqiy tanlovni qanday baholardingiz?

O'qituvchi shaxsiyati va uning roli

¹⁶⁹ Kolb, D. A. *Experiential Learning*. Prentice Hall. 1984.

¹⁷⁰ Johnson, D. W., & Johnson, R. T. *Learning Together and Alone*. Allyn & Bacon. 1999.

¹⁷¹ Slavin, R. E. *Cooperative Learning*. Allyn & Bacon. Cooperative Learning. Allyn & Bacon. 1995.

¹⁷² Fisher, R. *Teaching Thinking*. Continuum. 2003.

Tarix darslarining ta'sirchan bo'lishi ko'p jihatdan o'qituvchining mahoratiga bog'liq. V.O. Klyuchevskiy ta'kidlaganidek: "O'rgatayotgan narsangni va o'rganayotganlarni sevishing kerak". O'quvchilar nafaqat ustozlarning bilimlariga, balki shaxsiy fazilatlariga ham e'tibor qaratadilar. Shuning uchun pedagog tarixiy voqealarga xolis yondashish, hurmat, ijtimoiy mas'uliyat kabi tamoyillarni o'zida aks ettirishi kerak. Yosh o'quvchilar o'zlariga namuna bo'luvchi shaxslarni o'rganishga moyildirlar. Hikmatlarda aytilganidek, "Odamzod ilm orqali yuksaladi, ilm esa ustoz orqali o'rgatiladi. Ustoz yuksak fazilat sohibi bo'lsa, shogird ham shunday bo'ladi."

O'quvchilar tarixni faqat faktlar to'plami emas, balki hayotiy dars sifatida qabul qilishlari uchun quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi:

- Shijoat va qiziqish uyg'ota olish qobiliyati
- Xolis bo'lish¹⁷³
- Xulqi bilan ibrat bo'lish
- Dars jarayonida muloqotni samarali tashkil eta olish.¹⁷⁴

Tarix darslari nafaqat bilim berish, balki insoniy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Shu boisdan, darslarni interaktiv va ma'naviy-axloqiy asoslangan shaklda olib borish o'quvchilarning tarixga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni mantiqiy fikrlashga undaydi.¹⁷⁵ O'qituvchining dars jarayonidagi yondashuvi esa o'quvchilarning tarixni chuqurroq anglashlari va o'z hayotlariga tegishli saboqlar chiqarishlari uchun muhim omil hisoblanadi.

"Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi". Shunday ekan, ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borish talab etiladi.

Shuni unutmasligimiz kerakki, yurt kelajagi, vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimiz va yoshlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liqdir. Shu sababli har bir ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, unib-o'sib kelayotgan yoshlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak.

Eng muhimi, farzandlarimizni sog'lom, komil inson qilib tarbiyalaylikki, ular o'z ota-bobolariga, tariximizga, Vatanimizga, ona tilimizga, o'z milliy qadriyatlarimizga, muqaddas dinimiz an'analariga sodiq bo'lishsin.

¹⁷³ Freire, P. Pedagogy of the Oppressed. Continuum. 1970.

¹⁷⁴ Vygotsky, L. S. Mind in Society. Harvard University Press. 1978.

¹⁷⁵ Bruner, J. S. Toward a Theory of Instruction. Harvard University Press. 1966.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bruner, J. S. Toward a Theory of Instruction. Harvard University Press. 1966.
<https://archive.org/details/towardtheoryofin00brun>
2. Dewey, J. Experience and Education. Macmillan. 1938.
https://archive.org/details/experienceeducat00dewe_0
3. Erikson, E. H. Childhood and Society. Norton. 1963.
<https://cyberdandy.org/wp-content/uploads/2023/08/Erik-H.-Erikson-Childhood-and-Society-1993.pdf>
4. Fisher, R. Teaching Thinking. Continuum. 2003.
<https://www.marilenabeltramini.it/children/thinking.pdf>
5. Freire, P. Pedagogy of the Oppressed. Continuum. 1970.
<https://envs.ucsc.edu/internships/internship-readings/freire-pedagogy-of-the-oppressed.pdf>
6. Fullan, M. The New Meaning of Educational Change. Routledge. 2007
<http://www.daneshnamehicsa.ir/userfiles/files/1/6-%20The%20New%20Meaning%20of%20Educational%20Change,%20Fourth%20Edition.pdf>
7. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. Learning Together and Alone. Allyn & Bacon. 1999. <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=589667>
8. Kolb, D. A. Experiential Learning. Prentice Hall. 1984.
https://www.fullerton.edu/cice/resources/pdfs/sl_documents/Experiential%20Learning%20%20Experience%20As%20The%20Source%20Of%20Learning%20and%20Development.pdf
9. Piaget, J. The Psychology of Intelligence. Routledge. 1950.
https://www.bxscience.edu/ourpages/auto/2014/11/16/50007779/Piaget%20When%20Thinking%20Begins10272012_0000.pdf
10. Slavin, R. E. Cooperative Learning. Allyn & Bacon. Cooperative Learning. Allyn & Bacon. 1995.
https://www.bxscience.edu/ourpages/auto/2014/11/16/50007779/Piaget%20When%20Thinking%20Begins10272012_0000.pdf
11. Vygotsky, L. S. Mind in Society. Harvard University Press. 1978.
<https://home.fau.edu/musgrove/web/vygotsky1978.pdf>